

YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Odilova sevaraxoning Ibrohimjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti magistratura
bo'limi "Huquq ta'limi" 2-bosqich talabasi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.03.2026

Revised: 26.03.2026

Accepted: 27.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

*ayollar huquqlari,
ijtimoiy himoya, gender
tenglik, oilaviy
zo'ravonlik, mehnat
huquqlari, sog'liqni
saqlash, ta'lim,
subsidiya, nogironlik,
strategiya, qonunchilik.*

*Ushbu maqolada "Yangi O'zbekistonda ayollar
ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari"
mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada
mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli
ijtimoiy siyosiy islohotlar doirasida ayollar ijtimoiy
himoyasi tizimida yuz bergan yangi o'zgarishlarni
tahlil qiladi va keng ko'lamli yoritib beriladi.*

Kirish. Bugungi kunda Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning tafakkuri, dunyoqarashi tobora o'zgarmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun turli shart-sharoit yaratish su bilan birgalikda onalik va bolalikni har tamonlama qo'llab-quvvatlash, oila ijtimoiy institutlarni mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Zero, barchamizga yaxshi malum-ki har qanday jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy yetukligi ayollarga munosabati bilan belgilanishi hech birimizga sir emas

albatta. Bir soʻz bilan aytganda Xotin-qizlarni hurmat qilish, ularning jamiyat rivojidagi hissasini munosib baholash, ularga barcha masalalarda koʻmaklashish va qollab quvvatlash bularning barchasi qadimdan xalqimizga xos xususiyatdir. Barchamiz guvohi boʻlib turganimizdek yangilanayotgan Oʻzbekistondagi keng koʻlamli demokratik islohotlar natijasida, xotin-qizlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki tobora yuksalib bormoqda. Shu bois ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqeyi, shu bilan bir qatorda jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishi, oilada qadr topishi masalalariga davlat miqyosida katta eʼtibor qaratilayotgani hech birmizga sir emas albatta. Bir soʻz bilan aytadiganda, **“Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi boʻlgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu oʻnta yaxshilik boʻlib qaytadi”**, – deya taʼkidladi prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida. Shu bilan bir qatorda shu ham qoʻshimcha qila olamanki 2021-yil 26- fevral kuni xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishida respublikamizdagi ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlarga har tomonlama koʻmaklashish boʻyicha bir qator vazifalar muhokamadi.¹²⁴

Bugungi kunda barchamizga yaxshi maʼlumki muhtaram prezidentimiz timonlaridan barcha sohalarga juda ham katta eʼtibor berilmoqda. Shu jumladan ayollarni ijtimoiy xijatdan qoʻllab quvvatlash, ularni sport sanaʼat tadbirkorlik va shu kabi bir necha sohalarda oʻzlarini bor maahorat va imkoniyatlarini koʻrsatish uchun yutimizda barcha qulay shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligini guvohi boʻlib turibmiz. Fikrimizning yaqqol isboti sifatida shuni ham aytda olamanki; ayni damda yurtimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini taʼminlash, jamiyat va davlat hayotidagi oʻrnini yanada mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yoʻnalishidan biri sifatida oʻz oldiga maqsad qilib ilgan desam aslo yanglishmagan boʻlaman. Oxirgi toʻrt yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotinqizlar va gender tengligi masalalari boʻyicha qoʻmita tashkil etildi. Bu yangiliklarning barchasi albatta ayollarga va qizllarga boʻlgan yuksak xurmat va eʼtibor shu bilan bir qatorda yurboshimizning ulkan bizlarga bildirgan ishonchlari hamdir albatta Prezident raisligida ayni paytda oʻtayotgan yigʻilishda xotin-qizlar salomatligi, aholi

¹²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 26-феврал куни “хотинқизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш масалалари” муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши

bandligi, ijtimoiy farovonlik va xavfsizlik muammolari muhokama qilinmoqda. “Eng achinarlisi, ayollarni xo‘rlash, o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish hamda omma oldida “savdoyi” qilish holatlari oddiy holatga aylanib bormoqda”, - deya ta’kidladi prezident. Barcha yuqoridagi fikrlarni isboti sifatida ayollarning ijtimoiy himoyasi va teng huquqlilik masalasini ochiqchasiga muhokama qilindi va qonun bilan isbotlanib qo‘yilganligidan ham bu masala na qadar jidiy va e’tiborga molik ekanligini bilsak bo‘ladi. Xususan Yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”(58-modda.) deb alohida yozib qo‘yilgan.¹²⁵

Xozirda butun dunyo bo‘ylab Globallashuv jarayoni oila va jamiyatda ayollar maqomini oshirish, barkamol avlod tarbiyasi, oilalarga ayniqsa yosh oilalarga yordamlashish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni ma’naviy va moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda yosh oilalar bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy ish yo‘nalishlarini aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Albatta Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llabquvvatlashga doir ishlarni yanada “Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali 87 jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur izchil amalga oshirilayotganligini e’tirof etish joizdir deb xisoblayman.¹²⁶

Taqiqotlarim natijasida shunga guvoh bo‘ldimki ayollarning ijtimoiy va siyosiy masalasiga har zamomda e’tobor qaratilib kelingan. Misol tariqasida ayollarning farzand oila va ijtimoiy haayotdagi yuksak mavqelari alohida e’tirof etilgan. Xususan bobomiz Abu Rayhon Beruniy o‘z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo‘lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deya alohida ta’kidlaydi.

Jumladan Xotin-qizlarni sog‘lom, madaniyatli, ma’rifatli, ilimli qilib tarbiyalashning juda katta ijobiy oqibatlarini kuzatiladi. Avvalo, barkamol, mehnatsevar, vatanparvar, bilimli avlod

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish” nashriyoti, 2023. – 33 B

¹²⁶ . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87 sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

shakllanadi. Mamlakatimizning dunyo miqyosidagi mavqeyi yanada oshadi. ayollarga bo'lgan yuksak xurmat va e'tirof dunyo maydonlarida o'z aksini topadi.

Xuolsa; xulosa o'rnida shu ayta olamanki bugungi kunda o'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olish jihatlariga alohida e'tibor qaratilib, qizlarning sifatli ta'lim olishi, kasb egallab, ishli bo'lishi uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Talabalarning aynan 48 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. O'tgan yili yo'lga qo'yilgan tizimga muvofiq, 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. Yana ijtimoiy himoyaga muhtoj ayol qizlar uchun davlatimiz tomonidan alohida kvota ajratilganligi yki bo'lmasa ayrim toifadagi ayollarni kontrak summalari to'lab beririlishi bularning barchasi yurtimizda ayollar va ularga bo'lgan e'tibor qanchalik yuksak ekanligiga yaqqol milos bo'la oladi desam aslo yanglishmagan bo'laman. Shu bilan birga, bugungi kunda 1 ming 400 ga yaqin ayollar respublika va viloyatlar, 43 mingdan ziyodi tuman va shaharlar darajasidagi rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqda. Bu ham bo'lsa teng huquqli ekanligimiz barcha sohalarida ayollarga imkoniyatlar eshiklari ochiq ekanligidan dalolat beradi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham o'z hisobotida bayonot berib, ilm-fan sohasida xotin-qizlar qanchalik ko'p bo'lsa, bundan ilm-fan shunchalik ko'p yutishini ta'kidladi. Bosh kotibning so'zlariga ko'ra, "Ayollar va qizlar ilmiy tadqiqot faoliyatiga xilma-xillik olib kiradi, ilm-fan asosiy kasbi bo'lgan fidoyilar safini kengaytiradi va ilmiy-texnikaviy sohani yangicha qarashlar hisobiga boyitadi"deb alohida takidlaydi. Biz qaysi davrda yshashimizdan qat'iy nazar Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotinqizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalari o'ta dolzarbd¹²⁷

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish" nashriyoti, 2023. – 33 B.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 26-феврал куни "хотинқизларнинг муаммolarini hal qilish va ularni qo'llab quvvatlash masalalari" muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'iliши .

¹²⁷ . 01.03.2022 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ–149-sonli qarori – "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llabquvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87 sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. 01.03.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ–149-sonli qarori – “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a‘zolarini qo‘llabquvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

